

BAXSHICHILIK SAN'ATINING TARIXI VA UNING RIVOJLANISHI

Naurizbaeva Xanzada Oralbay Qizi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali
"Xalq ijodiyoti" fakulteti "Baxshichilik va dostonchilik"
ta'lim yo'nalishi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada baxshichilik san'atining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va tarixiy taraqqiyoti haqida fikr yuritiladi. Baxshichilik xalq og'zaki ijodining muhim turlaridan biri bo'lib, asrlar davomida o'zbek va boshqa turkiy xalqlar madaniyatida muhim o'rinn tutgan. Maqolada qadimiy epik dostonlar, baxshichilikning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi roli, usta-shogird maktabi, ijro uslublari va an'analarining shakllanishi yoritilgan. Shuningdek, baxshichilik san'atining turli tarixiy davrlardagi holati,

Kalit so'zlar: Baxshichilik, xalq og'zaki ijodi, epik dostonlar, madaniy meros, ustoz-shogird maktabi, tarixiy taraqqiyot, san'at rivoji, o'zbek folklori, ijrochilik, mustaqillik, zamonaviy baxshichilik.

HISTORY OF BAKHSHICHIL ART AND ITS DEVELOPMENT

Annotation: This article discusses the origin, stages of formation and historical development of Bakhshichi art. Bakhshichili is one of the important types of folk oral art, which has occupied an important place in the culture of Uzbek and other Turkic peoples for centuries. The article covers ancient epic epics, the role of Bakhshichili in socio-spiritual life, the master-apprentice school, the formation of performance styles and traditions. It also discusses the state of Bakhshichili art in different historical periods,

Key words: Bakhshichili, folk oral art, epic epics, cultural heritage, master-apprentice school, historical development, art development, Uzbek folklore, performance, independence, modern Bakhshichili.

KIRISH

O'zbek xalqining poetik og'zaki ijodida dostonchilik san'ati alohida o'rinn egallaydi. U xalqning boy ma'naviy merosi, milliy qadriyat va an'analarining asrlar davomida saqlanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarda "baxshi" so'zining turli zamonlarda va xalqlar orasida shomon, kohin, folbin, hisobchi, ustoz, ma'rifatparvar kabi turli ma'nolarda qo'llangani qayd etiladi. Baxshi — xalq og'zaki ijodining epik va lirik shakllarini ijro etuvchi, doston, qo'shiq va termalarni kuylovchi professional ijrochidir. Ularni xalq orasida yana yuzboshi, sannovchi, sozanda, jirov kabi nomlar bilan atashadi.

Miloddan avvalgi 2–3 ming yilliklar davomida ham baxshi degan nom mavjud bo‘lgan bo‘lib, bu so‘z mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha” (bag‘sha – o‘qituvchi, ziyoli), turkmanlarda “bag‘shi”, qoraqalpoqlarda “baqsi” shakllarida ishlataligancha. Baxshi — avloddan avlodga xalqning og‘zaki ijodiy boyligini yetkazuvchi, dostonlarni yoddan kuylovchi san’atkordir. U so‘z boyligi, lirik obrazlarni ifodalash, maqollar va iboralarni mahorat bilan qo‘llay olishi, kuy va ohang bilan musiqiy muhit yaratish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Baxshining o‘ziga xos ijro uslubi, ovoz ohangi, tinglovchini rom etuvchi mahorati, ijodiy tafakkuri va mashq qilishdagi qat’iyati uni san’atkor sifatida yuksak pog‘onaga olib chiqadi. Baxshi tomonidan ijro etilgan dostonlar insonparvarlik, do‘stlik, sadoqat, jasorat kabi yuksak g‘oyalarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekistonning Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘iston hududlarida baxshichilik san’ati keng rivojlangan. Har bir hududda shakllangan dostonchilik maktablarining o‘ziga xos repertuar va ijro uslubi mavjud. Masalan, Bulung‘ur maktabi qahramonlik dostonlari bilan tanilgan bo‘lsa, Qo‘rg‘on maktabi lirik va ishqiy dostonlarni ijro etadi.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Baxshichilik san’atining uzviy rivojlanishida ustoz-shogird an’anasi, ijro uslublarining individual xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Baxshining ijrosi voqeaga, auditoriyaga, kayfiyatga qarab o‘zgarib turadi. Bu esa badihago‘ylik san’atining kuchli namoyonidir. Har bir baxshi ijro davomida dostonni qayta yaratish, unga yangi ohang va ruh bag‘ishlar.

Masalan, Po‘lkan shoir 70 dan ortiq, Qodir baxshi esa 80 ga yaqin dostonni yoddan ijro etgan. Bu ularning iste’dod darajasi, xotira quvvati va san’atga bo‘lgan sadoqatining isbotidir. Baxshi-shoirlar an’anaviy ijroni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘z asarlarini ham yaratib ijro etadilar.[2]

Ma’lumki, o‘zining boy xalq og‘zaki ijodi, betakror etnomadaniyati va qadimiy adabiy merosi bilan o‘zbek xalqi Sharqning badiiy madaniyatiga salmoqli hissa qo‘shgan. Ular Markaziy Osiyoda epik ijrochilik san’atining qadimiy va uzviy shaklini yaratgan va uni bugungi kungacha og‘zaki ijro holatida saqlab kelmoqda.

Yirik epik asarlarni do‘mbira, dutor, tor, qo‘biz kabi an’anaviy cholg‘ular jo‘rligida kuylovchi ijrochilar xalq orasida turli nomlar bilan – “baxshi”, “shoir”, “jirov”, “soqi”, “sannovchi”, “xalfa”, “qissaxon” va “oqin” kabi atamalar bilan tanilgan.[3]

“Baxshi” atamasi ko‘plab turkiy xalqlar orasida keng qo‘llanadi va u nafaqat epik asarlar ijrochisi, balki shamanistik marosimlarda ishtirok etuvchi, ruhiy-psixologik davolash amallarini bajaruvchi shaxs ma’nosini ham o‘z ichiga oladi. “Qadimgi turkiy til lug‘ati”da bu so‘z xitoy tilidagi “bo-shi” so‘zidan kelib chiqqani, “ustoz”, “murabbiy” degan ma’noni anglatishi ta’kidlangan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da

esa “baxshi” so‘zi xalq og‘zaki ijodini kuylovchi shoir, irim-sirimlar bilan davolovchi tabib va tarixiy lavozim egasi sifatida izohlanadi.

Baxshilar ijodining markaziy qismi — dostonlar bo‘lib, ular o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiylari va hajman yirik janrlaridan hisoblanadi. Dostonlar baxshilar tomonidan og‘zaki ravishda, she’riy va nasriy shakllarning sintezi asosida ijro etiladi. Tarixiy voqeliklar keng epik doirada, xalq qahramonligi, vatanparvarlik, muhabbat va sadoqat g‘oyalari bilan uyg‘un holda aks ettiriladi.

O‘zbek xalq eposi qahramonlik (“Alpomish”, “Yodgor”), jangnoma (“Yusuf bilan Ahmad”), romantik (“Go‘ro‘g‘li”, “Orzigul”), tarixiy (“Oysuluv”, “Shayboniyxon”), kitobiy (“Farhod va Shirin”) va ishqiy dostonlar (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra”)ni qamrab oladi.[4]

Ijro an’analariga ko‘ra, baxshilar doston aytishdan avval tinglovchini tayyorlash maqsadida pand-nasihatga boy termalar yoki liro-epik she’rlar ijro etadilar. Masalan, Samarqand va Janubiy O‘zbekiston baxshilari “Nima aytay?”, “Ot” kabi termalarni aytadilar, xorazmlik baxshilar esa Maxtumquli she’rlarini kuylashadi.

Har bir mintaqaning dostonchilik maktablari o‘ziga xos ijro uslubi, repertuari va ustoz-shogirdlik an’analariga ega. Samarqandda “Bulung‘ur”, “Qo‘rg‘on”, “Narpay” maktablari; Surxondaryo va Qashqadaryoda “Sherobod”, “Boysun”, “Chiroqchi”; Toshkentda “Pskent”, Xorazmda “Xorazm dostonchilik maktabi” faol bo‘lgan. Har bir maktabning doston tanlovi va ijro shakllari farqlanadi. Masalan, Bulung‘ur maktabi “Alpomish” kabi dostonlarga, Qo‘rg‘on maktabi “Go‘ro‘g‘li” turkumiga e’tibor bergen. Xorazm maktabi esa ko‘p hollarda dostonlarni ochiq ovozda, cholg‘uchilar jo‘rligida, qisqaroq shaklda ijro etishi bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda dostonchilik an’analari jonli ijro holatida asosan Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarida davom etmoqda. Dostonchilarning repertuarida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oltin qoboq”, “Sherali bilan Erali”, “Kuntug‘mish”, “Oysuluv”, “Rustamxon” kabi asarlar saqlanib qolgan.

Bugungi davrning mashhur baxshilaridan biri — “O‘zbekiston xalq baxshisi” Abduqahhor Rahimov bo‘lib, u nafaqat an’anaviy dostonlarni, balki “Temur va Boyazid”, “Ahmad Yassaviy” kabi o‘z ijodiy asarlarini ham kuylaydi. Bu holat Janubiy O‘zbekistonda yangi epik asarlarning ham yaratilayotganidan dalolat beradi.

Xorazm baxshilari asosan “Oshiq G‘arib”, “Hurliqo va Hamro” kabi oshiq dostonlarini ijro etadilar. Ularning xalfalari esa “Yusuf va Zulayxo”, “Tohir va Zuhra” kabi kitobiy dostonlar bilan birga xalq qo‘shiqlarini ham kuylaydi. Baxshi-shoirlar bugungi kunda nafaqat doston aytish, balki zamonaviy mavzulardagi termalar yaratish orqali o‘z ijodiy salohiyatlarini namoyon qilmoqdalar.[5]

2010 yildan boshlab, O‘zbekiston hukumati nomoddiy madaniy merosni asrash va targ‘ib qilishga qaratilgan Davlat dasturini joriy etdi. Bu doirada folklor

ekspeditsiyalari o'tkazilib, baxshilarning repertuarlari ilmiy asosda o'rganildi, dostonlar yozib olindi va chop etilmoqda. "Xalfachilik" va "Baxshichilik" san'atlarini YuNESKO ro'yxatiga kiritish uchun ma'lumotlar bazasi yaratilmoqda. "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" nomli 100 jildli nashr loyihasining 59 jildi aynan dostonlarga bag'ishlanadi.

Shuningdek, Bulung'ur, Sherobod, Narpay, Pskent va Xorazm maktablariga mansub baxshilar yaratgan dostonlar Markaziy Osiyo xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotiga katta hissa bo'lib xizmat qilgan. Bu maktablarning shakllanishi epos janrining uzluksiz rivojlanishiga turki bergan.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek dostonchiligining eng ilg'or vakillari – Shoberdi Boltayev, Boborahim Mamatmurodov, Qora baxshi Umirov, Ziyodulla baxshi Islomov kabi ustoz san'atkorlar "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoni bilan taqdirlandi. Ular va ularning shogirdlari milliy bayramlarda, to'y-hashamlarda qadimiy dostonlarni ijro etishda faol ishtirok etmoqdalar. Bu esa o'zbek baxshichiligi an'anasi hali ham tirik va taraqqiyotda ekanidan dalolatdir.[6]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, baxshichilik san'ati — o'zbek xalqining badiiy tafakkurini, tarixiy xotirasini va estetik qarashlarini ifodalovchi noyob madaniy hodisadir. U voqeа va obrazlarni jonli, badiiy shaklda ifoda etish, tinglovchini ruhiy jihatdan boyitish, milliy o'zlikni anglashda beqiyos o'rin tutadi. Bu san'atning bardavom bo'lishi esa baxshilar mahorati, an'analarga sodiqlik va ustoz-shogird davomiyligiga chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 180.
2. Qadimgi turkiy til lug'ati. – Leningrad: Nauka, 1969.
3. Sodiqov, M. O'zbek xalq dostonchiligi. – Toshkent: Fan, 1991.
4. Zohidov, A. Baxshichilik va xalq dostonlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
5. Karimov, M. O'zbek dostonchiligi maktablari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
6. Rasulov, A. Xalq dostonchiligi an'analar. – Qarshi: Nasaf, 2010.